

**MAHSULOT TANNARXINING IQTISODIY KATEGORIYA SIFATIDAGI  
MAZMUNI VA UNI NAZARIY ASOSLARI****Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna***Farg‘ona davlat texnika universiteti. Assistenti*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada mahsulot tannarxi iqtisodiy kategoriya sifatida tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda uning mazmun-mohiyati, tarkibi va funksiyalari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan asoslab beriladi. Tadqiqotda tannarxning ishlab chiqarish va sotish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligi, uning narx, foyda va rentabellik ko‘rsatkic hlari bilan o‘zaro aloqasi ochib beriladi. Shuningdek, mahsulot tannarxini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, jumladan, xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv hisobini takomillashtirish va strategik xarajatlar men eamenti usullarining nazariy asoslari yoritiladi. Maqolada tannarxni pasaytirish orqali korxonada raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish va barqaror iqtisodiy o‘shni ta‘minlash imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslanadi.*

**Kalit so‘zlar.** *Mahsulot tannarxi, iqtisodiy kategoriya, xarajatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx tarkibi, tannarx funksiyalari, xarajatlarni boshqarish, samaradorlik, rentabellik, raqobatbardoshlik, strategik xarajatlar menejmenti, to‘qimachilik sanoati.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarida dunyoning yetakchi davlatlari qatoridan joy olmoqda. Respublika iqtisodiyotining rivojlanishi esa aholining kompleks ehtiyojlarini ta‘minlash va himoya qilishga xizmat qiladi. O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanish bosqichi iqtisodiyotning barqaror o‘shishi bilan tavsiflanadi, bunda to‘qimachilik sanoati muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonlari dolzarb bo‘lgan hozirgi sharoitda ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati nafaqat iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri, balki xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mahsulot eksporti bo‘yicha yetakchi tarmoq hisoblanadi. Mahsulotning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: mahsulot sifati, uning narxi, muayyan ehtiyojni qondirishi, mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar qiymati, sifatni boshqarish tizimi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat yengil sanoatida, xususan to‘qimachilik sanoatida mahsulot tannarxini kamaytirishga, mahsulot assortimenti va sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni joriy etishni talab qiladi. Innovatsion yondashuvlar asosida milliy to‘qimachilik sanoatining iqtisodiy salohiyatini oshirish nuqtai nazaridan ushbu muammoning ilmiy-

metodologik va amaliy jihatlarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Bu muammolar O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasida ham qayd etilgan bo‘lib, unda katta xom ashyo bazasiga ega bo‘lishiga qaramay, mamlakatda tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yetarli darajada rivojlanmaganligi va bu holat uni mazkur sohada yetakchi davlatlardan 2-2,5 barobar ortda qolishiga olib kelayotgani ta’kidlanadi, shu bois tarmoqda chuqur qayta ishlashni kengaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish hamda zamonaviy boshqaruv va innovatsion texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur strategik yondashuv to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga bevosita taalluqli bo‘lib, ayniqsa xom ashyo eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish, ishlab chiqarish zanjirini chuqurlashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, strategiyada sanoat korxonalarida resurslardan samarali foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini keng qo‘llash zarurligi alohida ta’kidlanadi. Ushbu ustuvor yo‘nalishlar to‘qimachilik sanoatida mahsulot tannarxini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni mustahkamlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, strategik hujjatda belgilangan vazifalar to‘qimachilik korxonalarida tannarxni pasaytirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Ushbu vazifalarni kuchli raqobat sharoitida samarali bajarish, to‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish, mahsulot tannarxini kamaytirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar rejasini tayyorlashni, shuningdek ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni talab etadi.

To‘qimachilik sanoati yengil sanoatning eng yirik tarmoqlaridan biri bo‘lib, asosan qishloq xo‘jaligi xom ashyosi asosida turli xil matolar, trikotaj va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. To‘qimachilik sanoatida xom ashyo va iste’molchilar talabiga alohida e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish va rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonida xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan to‘liq ishlab chiqarish zanjirini shakllantirish zarur. Bu esa zamonaviy texnologiyalarni amalga oshirib, innovatsion usullardan, jumladan klaster yondashuvidan foydalanib, paxta tolasi chuqur qayta ishlanishini tashkil etishni talab etadi. Natijada tashqi va ichki bozorlarda yuqori talabga ega bo‘lgan hamyonbop, ekologik toza tayyor to‘qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Xamyonbop mahsulot ishlab chiqarish uning tannarxining shakllanishi bilan bog‘liqdir.

Maxsulot tannarxi ko‘rsatkichi ishlab chiqarishni rivojlantirishda va uni tashkil etishda muxim rol o‘ynaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, ya'ni foydani ko'paytirishning, mavjud resurslar bilan ishlab chiqarish hajmini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichi ishlab chiqarish sifat ko'rsatkichlari orasida alohida o'rin tutadi.<sup>49</sup>

Mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish jarayonida doimo ma'lum resurslar sarflanadi, ular o'zining natural ifodasida namoyon bo'ladi. Bunday resurslarga mehnat, moddiy va axborot resurslari kiradi. Korxonada faoliyatining natijadorlik darajasini baholash uchun ushbu xarajatlarning barchasini ularning bevosita qiymat ifodasida chuqur tahlil qilish zarur, ya'ni kelgusida mahsulot tannarxining asosini tashkil etadigan xarajatlarni o'rganish lozim. Shunday qilib, mahsulot tannarxiga ta'rif berish mumkin.

**Tannarx (xarajatlar)** - bu korxonada tomonidan mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish, shuningdek xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish omillari xarajatlarining puldagi ifodasidir. Ya'ni, tannarx korxonada uchun mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga ketadigan barcha sarf-xarajatlarni ifodalaydi.

Tannarx ko'rsatkichlari korxonada ishlab chiqarish samaradorligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mahsulot qiymatining katta qismini aks ettiradi. Tannarx darajasi ko'p jihatdan mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish sharoitlariga hamda ularning o'zgarishiga bog'liqdir. Ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy omillari xarajatlar darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi o'zgarishlar, mahsulotning sifati va tuzilmasi, shuningdek ishlab chiqarish xarajatlari hajmiga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot tannarxi korxonada ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatining eng muhim ko'rsatkichidir, chunki bu ko'rsatkichni hisoblash quyidagilar uchun zarurdir:

-bu ko'rsatkich bo'yicha korxonada rejaning bajarilishini va uning dinamikasini baholash mumkin;

-alohida mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlari bo'yicha ishlab chiqarish rentabelligini aniqlash mumkin;

-ishlab chiqarish ichidagi xarajatlarni hisobga olishni amalga oshirish mumkin;

-ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish uchun mavjud zaxiralarni aniqlash mumkin;

-ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning ulgurji narxlarini aniqlash mumkin;

<sup>49</sup> Ortiqov.A Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.Toshkent 2009

-iqtisodiy samaradorlikni hisoblash va yangi uskunalar, texnologiyalar, tashkiliy va texnik tadbirlarni joriy etish mumkin;

-yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va eskirganlarini bekor qilish to‘g‘risidagi qarorlarni asoslash mumkin.

-Odatda korxonalar xarajatlari uchta tur bo‘yicha hisobga olinadi hamda miqdori ko‘rsatkichlar bo‘yicha farqlanadi:

-bevosita ishlab chiqarish tannarxi, xususan mahsulot ishlab chiqarish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq moddiy xarajatlar: ishlab chiqarish uskuna, jihozlarining amortizatsiyasi hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ulardan foydalanish xarajatlari, asosiy ishlab chiqarish sexi ishchilarining ish haqi, ijtimoiy badallari va boshqa umumiy bevosita ishlab chiqarish xarajatlari;

-ishlab chiqarish tannarxi (tayyor mahsulot tannarxi), do‘kon tannarxidan tashqari, umumiy korxonalar xarajatlarini (ma‘muriy, boshqaruv va umumiy iqtisodiy xarajatlar) va yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini o‘z ichiga oladi;

-umumiy xarajatlar yoki sotilgan (jo‘natilgan) mahsulotlarning tannarxi mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxi va uni sotish xarajatlarini birlashtirgan ko‘rsatkichdir.<sup>50</sup>

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlar yuqoridagilardan tashqari, rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlar o‘rtasida farqlarni vujudga keltirmoqda. Rejalashtirilgan xarajatlar stavkalari va ma‘lum davr uchun uning miqdoriy ko‘rsatkichlar ushbu davr boshida aniqlanadi. Haqiqiy tannarx ko‘rsatkichlari esa hisobot davri oxirida haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risidagi buxgalteriya ma‘lumotlari asosida aniqlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki mahsulot tannarxi ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bu mahsulot tannarxining katta qismini aks ettiradi hamda ishlab chiqarish va sotish sharoitlarining o‘zgarishiga bog‘liq hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy talablarga muvofiq xarajatlarni tahlil qilish, odatda, ularni kamaytirish uchun ishlab chiqarish ichidagi zaxiralarni aniqlashni o‘z ichiga oladi hamda bu hisobot yil davomida muntazam ravishda amalga oshiriladi.

Korxonaning ishlab chiqarish tannarxini boshqarish - bu barcha mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari va alohida mahsulotlar tannarxini shakllantirishning tizimli jarayoni, mahsulot tannarxini pasaytirish bo‘yicha topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish, uni kamaytirish zaxiralarini aniqlashdir.

50 Ивашкевич, В. Б. Бухгалтерский управленческий учет: Учебник / В.Б. Ивашкевич. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Магистр: НИЦ ИНФРА-М, 2019. — 448 с

Tannarx - bu mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun korxonadan sarflanadigan barcha xarajatlarning puldagi ifodasidir. U korxonadan moliyaviy faoliyatini baholashda, narx shakllantirishda va rentabellik darajasini hisoblashda asosiy mezon hisoblanadi.

Mahsulot tannarxi eng muhim iqtisodiy toifa va sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi, chunki u korxonadan ixtiyorida mavjud bo‘lgan barcha resurslardan foydalanish darajasini tavsiflaydi.

**Korxonaning optimal hajmini aniqlash** - mahsulot ishlab chiqarish jarayonida o‘rtacha xarajatlarning o‘zgarishi aynan ishlab chiqarish miqyosi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Dastlab ishlab chiqarish hajmi oshgani sari doimiy xarajatlardan mahsulotga ko‘proq taqsimlanadi va natijada bir birlik mahsulot tannarxi pasayadi. Bu holat miqyos samarasi bilan izohlanadi. Biroq ma‘lum bir nuqtadan keyin ishlab chiqarish hajmini haddan tashqari oshirish boshqaruv murakkabligi, logistika xarajatlarning ortishi, resurslardan samarasiz foydalanish kabi omillar sabab tannarxning yana oshishiga olib keladi. Demak, tannarx dinamikasini tahlil qilish orqali korxonadan uchun eng past o‘rtacha xarajatlardan ta‘minlanadigan ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi va aynan shu nuqta korxonaning optimal hajmi hisoblanadi.

**Korxonaning barcha xarajatlarini hisobga olish** - tannarx ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonida yuzaga keladigan barcha turdagi sarflarni yagona pul ifodasida aks ettiradi. Ya‘ni, xom ashyo va materiallar, ish haqi, energiya resurslari, amortizatsiya, transport va boshqa ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish xarajatlari tannarx tarkibida jamlanadi. Bu esa korxonadan xarajatlardan tuzilmasini aniq ko‘rish, ularni elementlar va moddalarga ajratgan holda tahlil qilish imkonini beradi. Natijada qaysi yo‘nalishda ortiqcha sarf-xarajatlardan mavjudligi, qaysi jarayonlarda resurslardan samarasiz foydalanilayotgani aniqlanadi.

**Nazorat qilish** - korxonadan rejalashtirilgan (normativ) va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi, bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Ortiqcha sarf aniqlansa, texnologik jarayonlarni optimallashtirish, resurslardan foydalanishni takomillashtirish yoki ishlab chiqarish intizomini kuchaytirish choralari ko‘riladi. Samarali boshqarish, tejash imkoniyatlarini aniqlash va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

**Mahsulotning ulgurji narxini shakllantirish uchun asos yaratish** - narx belgilash jarayonining boshlang‘ich nuqtasi aynan ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq jami xarajatlarning puldagi ifodasi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tannarx korxonadan uchun minimal chegara vazifasini bajaradi - ya‘ni narx kamida tannarxni qoplashi zarur, aks holda korxonadan zarar ko‘radi. Ulgurji narxni shakllantirishda tannarxga ma‘lum miqdorda foyda (rentabellik darajasi) qo‘shiladi. Natijada “tannarx + foyda” tamoyili asosida iqtisodiy jihatdan asoslangan narx shakllanadi. Bu jarayonda korxonadan nafaqat o‘z xarajatlarini qoplashni, balki ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va moliyaviy

barqarorlikni ta’minlash uchun yetarli darajada foyda olishni ham ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, tannarx darajasi qanchalik past bo‘lsa, korxonada shunchalik raqobatbardosh narx belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tannarx ulgurji narxni shakllantirishda iqtisodiy asos, hisob-kitob mezon va boshqaruv instrumenti sifatida xizmat qilib, korxonaning foydaliligi hamda bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

**Xulosa.** Mahsulot tannarxini kamaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni nazorat qilish, texnologik va boshqaruv instrumentlarini uyg‘un qo‘llash orqali mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan sarflarni kamaytirishga xizmat qiluvchi usullar, vositalar va boshqaruv choralarining yaxlit tizimidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashurov M.S. Biznes muhitining hozirgi holatini baholash O‘zbekiston va uni samarali rivojlantirish muammolari. Monografiya. Globus tahriri Akademik nashriyot, Yevropa Ittifoqi. 2019. 201-206 bet.

2. Safarova D.E., Gaybullayeva G.M. To‘qimachilik korxonalarini faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy resurslardan foydalanish yo‘llari // Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 1295-1300.